



O'ZBEKISTONNING MADANIYATI VA SAN'ATI TARIXI MASALALARI

Shamsudinova Mohlaroyim Muzaffar qizi

Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10534036>

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekiston madaniyati va san'ati tarixi to'g'risida so'z yuriladi. Vatanimiz tarixida temuriylar tom ma'noda milliy va ma'naviy uyg'onish davri sifatida namoyon bo'lishi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan birgalikda madaniy yuksalishga erishishi Amir Temur nomi bilan birlikda bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy, siyosiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ma'naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga yetkazish borasida keng ko'lamda faoliyat olib borilmoqda. O'zbekistonga madaniyat va san'atning kirib kelishi, madaniyat va san'at haqida mutaffakirlarimizning fikrlari bayon etilgan va hozirgi kunda madaniyat va san'atning roli yoritib berilgan.

Kalit so'z va iboralar; Madaniyat, san'at, Temiriylar, festival, raqs, cholg'u ijrochiligi, madaniyat va san'at tarixi, marifatparvarlik.


Аннотация

В данной статье рассказывается об истории культуры и искусства Узбекистана. В истории нашей страны Темуриды фигурируют как период национального и духовного возрождения, с именем Амира Темура связано достижение культурного прогресса вместе с социально-экономическим развитием общества. Одновременно с реализацией экономических и политических реформ в Республике Узбекистан проводится обширная деятельность по восстановлению нашего духовного наследия и культурных ценностей и донесения их до нашего народа. Освещены внедрение культуры и искусства в Узбекистан, мнения наших мыслителей о культуре и искусстве, роль культуры и искусства в настоящее время.

Ключевые слова; Культура, искусство, Темуриды, фестиваль, танцы, инструментальное исполнение, культура и история искусства, просветительство.

Annotation

This article talks about the history of culture and art of Uzbekistan. In the history of our country Temurids appear as a period of national and spiritual renaissance the achievement of culture progress together with socio-economic development of the society is connected with name of Amir Temur. Simultaneously with the implementation of economic and political reforms in





the Republic of Uzbekistan, extensive activities are being carried out to restore our spiritual heritage and cultural values and convey them to our people. The introduction of culture and art to Uzbekistan, the opinions of our thinkers about culture and art, and the role of culture and art at present are highlighted.

Keywords and phrases; Culture, art, Temurd's, festival, dance, musical reforms, culture and art history, enlightenment.

“Temuriylar singari san`ati va madaniyatini qadrlaydigan hukmdorlar Markaziy Osiyoda hech vaqt bo`lamagan”

F.R.Martin

Madaniyat- ajdodlar tafakkuri, bilimlari, ijod va atrof-muhitga bo`lgan munosabatining mahsuli bo`lib, minglab yillar davomida yaratilgan tajribalarni o`ziga singdirib, takomillashtirib brogan. Madaniyat rivojlanishi bilan millat va uning ma`naviy qiyofasi ham shakllangan. Madaniyat haqidagi fikrlar insonning paydo bo`lishi bilan bir vaqtda paydo bo`lmagan. Aksincha yillar mobaynida rivojlanib kelgan.

“Madaniyat” arabcha “madina” so`zidan olingan bo`lib, “shahar” degan ma`noni anglatadi.

O`zbek halqi jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta xissa qo`shgan eng qadimiy xalqlardan biri.

San`at- bu insoniyatning badiiy ijodi. Adabiyot, arxitektura, haykaltaroshlik, rassomlik, grafika, amaliy bezak, musiqa, raqs, teatr, kino va inson faoliyatining boshqa turlari kiradi. Shularning barchasi qadim zamonlardan o`zbekistonda rivojlanib kelgan.

Tarixga nazar solsak, “Muallim Saniy” (Ikkinchi muallim) nomi bilan mashxur bo`lgan Abunasr Farobiy musiqa ilmi boyicha ham ko`zga ko`rinarli olimlardan biri sanaladi. Farobiy Yunonistonning nazariy musiqasini asos qilib olsa-da, unga yangi eroniy rang berib, ilmiy tajribasi bilan aralashtirib yuboradi.

“Musiqiy Kabir” (Buyuk musiqa) kitobi Forobiyning musiqa sohasidagi durdona asari hisoblanadi. Forobiy “Buyuk musiqa” asarida tanburning ikki turi: Bag`dod va Xuroson haqida gapiradi. Kitob ikki jildda yozilgan. U tovushqatorlarning turlari jadvalini yaratdi va bu o`sha davr xonandalar ovozi ishlashda vokaliz vazifasini bajaradi.

Masalan: Hobit- pastga harakat

Said- yuqoriga harakat

Mukammil- bir joyda harakat

Roje- qaytarma harakat





Mutassil- to'xtovsiz harakat

Tafir- sakrama harakat

Laxiq- yondosh tovushlar harakati

Maxill- bitta tovushning qaytarilishi

Al-farobiy jadvali 26 ta lad va harakat ko'rinishlarini o'z ichiga olgan.

Ikkinchi bo'lib Safiuddin Al-Urmaviy nota yozuvining harfli jadvalini ishlab chiqqan.

Buyuk mutaffakir va Orta Osiyoda tibbiyot ilmining asoschisi Abu Ali Ibn Sino ham musiqa ilmining rivojiga o'z hissasini qo'shgan. U ruhiy kasalliklarni davolashda juda ko'plab musiqiy asarlardan foydalangan. Masalan: "Musiqa ilmi haqida risola" "Shifo kitobi" "Bilim kitobi" kabi.

Shuningdek Temur va temuriylar davri Orta Osiyo madaniyatida alohida davrni tashkil qiladi. Temur va uning sulolasi davrida Orta Sharqda fan, san'at va madaniyat rivoj topdi. Shu davrda ajoyib saroylar, masjid va madrasalar koshinkor maqbaralar qurildi. Buyuk olim-u fozillar bu davlat shuhratini olamga tanitdilar. Uluq'bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin behzod kabi olimlar va miniatyura ijodkorlari shu davrda yashab ijod qildilar.

Sozlarga kelsak, ud qadimiy asbob. Ayrtomdan topilgan yodgorliklar ichida eramizning dastlabki asrlariga mansub bo'lgan ud chalayitgan ayol tasviri topilgan.

Ud- lug'aviy ma'nosi qora tusli yog'och, daraxt nomidir. Ud- "yid"- ya'ni bayram, tantana marosimida ham ishlatiladi. Uning dastlabki nomi barbot bo'lgan "Bar" (qomat) "Bot" o'rdak shaklini bildiradi.

Al-Xorazmiy ham musiqani matematika fanlari qatoriga kiritgan. Musiqiy kitoblari muhim nazariy manbalar hisoblanadi.

Musiqa matematik jixatdan ham hisob qilingan.

"Madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi"

"Xalq so'zi" gazetasidan

Yillar mobaynida san'atimiz va madaniyatimiz sayqallashib, rivojlanib bizgacha etib keldi. Biz yoshlarning vazifamiz, burchimiz- uni yanada yuksak choqqilarga olib chiqish. Ajdodlarimizdan qolgan buyuk merosni unutmagan holda, kelajag avlodga shu merosni etkazish bilan birgalikda o'zimiz ham ushbu madaniyatimizga va san'atimizga o'z hissamizni qo'shsak maqsadg muvofiq bo'lar edi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohalarda turli xil isloholar olib borilmoqda. Shu qatorda sa'at va





madaniyatga qaratilgan etibor judayam katta. Madaniyat va san`at rivojiga, ijod ahliga ko`rsatilayotgan yuksak e`tibor maqtovga sazovordir

So`nggi 2 yilda mazkur sohaga taaluqli 20 ga yaqin Farmon va qarorlar qabul qilindi. Ular ijrosi yuzasidan sa`y harakatlar olib borilyapti. Prezidentimizning 2019-yil 28-noyabrdagi "O`zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida"gi qarori muhim hujjat sifatida alohida ahamiyatga ega. Konsepsiya besh bobdan iborat. Ushbu qarorga muvofiq, sohaga ahborot-kommunikatsiya texnologiyalarini to`liq tadbqiq etish, xalqaro festival va korik- tanlovlarda chinakam iste`dod egalari ishtirokini ta`minlash, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yaratish, madaniyat hamda san`at muassasalari moddiu-texnika imkoniyatlarini kengaytirish ko`zda tutilgan.

2022\2023 o`quv yilidan boshlab ta`lim muassasalarida oquvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko`nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatimizga nisbatan muhabbatni shakllantirish va shu kabi chora-tadbirkar amalga oshirilmoqda. Mazkur qarorga muvofiq, milliy musiqa cholg`ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o`rgatikadi va haqida ularning ta`lim to`g`risidagi hujjatiga tegishli qayd kiritiladi. Musiqa fanu uchun haftasiga belgilangan bir o`quv soati hamda unga qo`shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg`ularida kuy ijro etish amaliyto`garaklari va fakultativ darslari o`tqaziladi. 2023\2024 o`quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo`lishi musiqa fani o`qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi.

Musiqa fani uchun ajratilgan o`quv soatlari doirasida "Hayotimga hamrohdir cholg`u" shiori ostida cholg`u ijrochiligi dars mashg`ulotlari yo`lga qoyiladi. Notalar to`plami va maxsus musiqiy adabiyotar ta`minlash tizimga kiritiladi.

O`zbekiston davlat filarmoniyasi va uning hududiy bo`limlari tomonidan boshqa madaniyat muassasalari bilan hamkorlikda lektoriy konsertlarni o`tkazish yo`lga qoyiladi.

2022-yilda O`zbekiston milliy simfonik orkestri va O`zbekiston davlat simfonik orkestrining Toshkent shahrida yirik konsert-tomosha tadbirlarini tashkil etish rejasi tuzilgan.

Bundan tashqari, maqomchilik san`atiga ham judayam kata ahamiyat berilmoqda. Juda ham ko`p qaror va chora tadbirlar o`tkazilmoqda. Maqom san`ti bo`yicha ilmiy tadqiqotlar olib boorish va targ`ib qilish bo`yicha xalqaro hamkorlklar yo`lga qoyilgan. Milliy musiqa merosimiz namunalarini notaga





olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish kabi yangi ilmiy tadqiqotlar yaratilgan.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasini takidlab o'tishimiz lozim. Ushbu uyushma 1938-yilda tashkil topgan. 1955-yildan buyon kompozitor Rustam Abdullayev raxbarlik qilib kelmoqda. Hozirgi kunda uyushmaning 120 dan ortiq a'zosi bor.

O'zbekistonda madaniyatni va san'atni biz yoshlar yanada takomillashtirib va yuksak choqqilarga olib chiqishimizni ishonch bilan ayta olamiz. Qulay shart-sharoitlar bilan biz yoshlarni ta'minlayotgan muxtaram yurtboshimizga ulkan minnatdorchiligimizni bildiramiz!!!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maqom masalasiga doir I.Radjabov. T: O'zbekiston Davlat badiiy adabiyotkari 1963
2. Alijon Xasanov. N=Musiq va tarbiya. "O'qituvchi", Toshkent, 1993-yil
3. Usmon Qoraboyev G'ayrat Soatov. O'zbekiston madaniyati. "Tafakkur-bo'stoni" Toshkent-2011
4. Finlandiyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi. // Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo'ldi, siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar. – "Sharq, 2019"
5. Haydarov A. Madaniyat- milliy yuksalish poydevori.
6. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yoq. - T. "Sharq" 1998
7. Karimov I. A. Yuksak manaviyat- yengilmas kuch. – T. "manaviyat" 2008.
8. Mirziyoyev Sh. M. Ilm-fan yetuklari- taraqqiyotning bir qismi // Xalq so'zi
9. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekisyon davlatini birga quramiz. – T. O'zbekiston.
10. Abdallayev X. U. San'at tarixi. – T. San'at. 2001.
11. Azizxo'jayev A. Davlatchilik va madaniyat. – T. Sharq. 1997.
12. Azamat Ziyov. A'zbek davlatchiligi tarixi. – T. 2000.
13. Zoxidov P. Memor olami. – T. Qomus, 1996.
14. Saydullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi. – T. 2000
15. <https://uz.m.wikipedia.org>
16. <https://e-library.namdu.uz>
17. <https://library.uzfi.uz>
18. <https://meros.uz>
19. <https://uzpedia.uz>
20. <https://cyberlinka.ru>

